

“CHO‘LPON ADABIY-TANQIDIY QARASHLARI”

Farg‘ona davlat universiteti

Filologiya fakulteti

Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili yo‘nalishi talabasi

Mamadaliyeva Zahroxon Nizomjon qizi

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asr boshidagi o‘zbek milliy uyg‘onish davrining yirik namoyandasi Cho‘lponning adabiy-tanqidiy qarashlari tahlil qilinadi. Unda adibning adabiyotning estetik mohiyati, jamiyat hayotidagi o‘rni, ijodkor mas’uliyati, milliy ruh va badiiy tafakkur haqidagi fikrlari ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, Cho‘lponning o‘zbek adabiy tanqidchiligi taraqqiyotidagi o‘rni hamda uning estetik qarashlarining bugungi adabiyotshunoslikdagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Cho‘lpon, adabiy tanqid, jadid adabiyoti, milliy uyg‘onish, estetik qarashlar, badiiy tafakkur, milliy ruh.

Аннотация: В данной статье анализируются литературно-критические взгляды Чулпана — одного из крупнейших представителей узбекского национального пробуждения начала XX века. В работе освещаются взгляды писателя на эстетическую сущность литературы, её роль в общественной жизни, ответственность творческой личности, национальный дух и художественное мышление. Также раскрывается значение Чулпана в развитии узбекской литературной критики и актуальность его эстетических взглядов для современного литературоведения.

Ключевые слова: Чулпан, литературная критика, джадидская литература, национальное пробуждение, эстетические взгляды, художественное мышление, национальный дух.

Abstract: This article analyzes the literary-critical views of Cho‘lpon, one of the prominent representatives of the Uzbek national awakening period in the early twentieth century. The study highlights the writer’s ideas about the aesthetic essence of literature, its role in social life, the responsibility of the creator, national spirit, and artistic thinking. In addition, the article examines Cho‘lpon’s contribution to the development of Uzbek literary criticism and the significance of his aesthetic views in contemporary literary studies.

Keywords: Cho‘lpon, literary criticism, Jadid literature, national awakening, aesthetic views, artistic thinking, national spirit.

XX asr boshlarida Turkiston hududida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlar o‘zbek adabiyotining mazmun hamda shakl jihatdan yangilanishiga sabab bo‘ldi. Bu davr adabiyotida millat taqdiri, ozodlik, ma’rifat va inson erki masalalari asosiy mavzuga aylandi. Ana shunday murakkab tarixiy sharoitda maydonga chiqqan Cho‘lpon nafaqat shoir va yozuvchi, balki kuchli adabiy tanqidchi sifatida ham milliy adabiyot taraqqiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

O‘zbek adabiyotining yirik siymalaridan biri Abdulhamid Sulaymon o‘gli Cho‘lpon benazir shoir, xassos yozuvchi, mohir dramaturg, zukko tarjimon va shu bilan birga nozik didli ilk munaqqidlardan biri edi. Serqirra bu ijodkor dastlab she’rlari, hikoya va publisistik asarlari bilan adabiy jamoatchilikka tanilgan yillaridayoq jiddiy adabiy-tanqidiy maqolalar ham e’lon qilib, o‘zbek adabiy tanqidchiligining yuksalishida munosib hissa qo’shdi.¹ Cho‘lponning adabiy-tanqidiy qarashlari jadidchilik mafkurasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, unda millatning ma’naviy uyg‘onishi masalasi markaziy o‘rinni egallaydi. Adib adabiyotni xalq ruhiyatini tarbiyalovchi, inson tafakkurini yuksaltiruvchi muhim ma’naviy vosita sifatida baholaydi. Shu jihatdan uning estetik qarashlari o‘zbek adabiy tanqidchiligi tarixida alohida bosqichni tashkil etadi.

¹ B.B.Rahimova. Cho‘lponning adabiy-tanqidiy qarashlari. Milliy shoirlarimiz Mehmet Ersoy va Abdulhamid Sulaymon Cho‘lponga bag‘ishlangan simpozium. 248-b.

“Cho‘lpon”, “Qalandar”, “Mirzaqalandar”, “Andijonlik” taxalluslari bilan ijod qilgan ijodkor adabiyotga oddiy badiiy hodisa sifatida emas, balki xalqning ruhiy hayoti bilan chambarchas bog‘liq ijtimoiy-ma‘naviy kuch sifatida yondashadi. Cho‘lpon nazarida badiiy asar xalqning dardi, orzusi va ichki kechinmalarini ifodalagan taqdirdagina estetik qiymat kasb etadi va bu qarashlari orqali uning maqolalari va publisistik chiqishlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. U adabiyotni millatning ma‘naviy taraqqiyotini belgilab beruvchi muhim omillardan biri deb hisoblaydi. Ayniqsa, yosh avlod tarbiyasida badiiy adabiyotning ta‘siri katta ekanini alohida qayd etadi.

Cho‘lpon san‘at va adabiyotning ijtimoiy hayotdagi o‘rnini vazifalarini jadidchilik g‘oyalari nuqtai nazaridan yoritgan, uning millat ma‘naviyati, ruhiyati, yurt taraqqiyoti uchun mas‘ulligini ta‘kidlagan munaqqidlardan biri edi. Cho‘lponning adabiy-tanqidiy maqolalari turli mavzularga bag‘ishlangan bo‘lib, ularning ayrimlari joriy adabiy jarayon muammolarini o‘rtaga qo‘yish va hal qilish, boshqa birlari mumtoz adabiyotimiz yoki jahon adabiyotlarining yetuk namoyondalarini elga tanitish va targ‘ib qilish, tag‘in birlari tarjimachilik muammolarini o‘rganish maqsadlariga qaratilganligi bilan e‘tiborlidir.² Cho‘lponning mazkur yondashuvi adabiyotning tarbiyaviy funksiyasini ham chuqur anglaganini ko‘rsatadi. Uning fikricha, badiiy asar inson qalbini poklashi uni ruhiy jihatdan yuksaltirishi va jamiyatdagi ma‘naviy inqirozga qarshi turishi lozim. Shu sababli u adabiyotda hayot haqiqatini ifodalash, milliy ruhni saqlash va ijodkor mas‘uliyatini yuqori qo‘yadi.

Cho‘lpon adabiyotning mohiyatini quyidagicha izohlaydi: ”Adabiyot chin ma‘nosi ila o‘lgan, so‘ngan qaralgan, o‘chgan, yarador ko‘ngilga ruh bermak uchun, faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydirg‘on, o‘tkur yurak kirlarini yuvadurg‘on toza ma‘rifat suvi, xiralashgan oynalarimizni yorug‘ va ravshan qiladirg‘on, chang va tuprog‘lar to‘lgan ko‘zlarimizni artub tozalaydirg‘on buloq suvi

² B.B.Rahimova. Cho‘lponning adabiy-tanqidiy qarashlari. Milliy shoirlarimiz Mehmet Ersoy va Abdulhamid Sulaymon Cho‘lponga bag‘ishlangan simpozyum. 248-b.

bo‘lg‘onlikdan bizga g‘oyat kerakdir.”³ Fikrlar orqali Cho‘lpon adabiyotning inson ruhiy hayotidagi davolovchi va poklovchi kuchga ega ekanini ta’kidlaydi. Bu qarashi esa jadid adabiyoti estetik tizimida adabiyotning tarbiyaviy va ma’rifiy funksiyasi ustuvor ekanini ko‘rsatadi.

Cho‘lponning “chin adabiyot” uchun kurashdagi faol xizmatlarini “Sadoi Turkiston”ning 1915-yil 6-fevral sonida chop etilgan “Chig‘atoy gurungi” to‘garagining faol a‘zosi bo‘lganligi va uni himoya etib yozgan maqolasi ham tasdiqlaydi.⁴ Bu holat adibning nafaqat ijodkor, balki faol adabiy jarayon ishtirokchisi sifatida maydonga chiqqanini ko‘rsatadi. U adabiyotni millat uyg‘onish g‘oyalari bilan bog‘lab, “chin adabiyot”ni xalq hayoti va ruhiyati bilan uzviy aloqada rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi. Shu jihatdan uning maqolalari jadid adabiy tanqidchiligining shakllanishida muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Cho‘lponshunos Ozod Sharafiddinovning ta’kidlashicha: “Cho‘lpon o‘zini professional munaqqid yoki muayyan akademik qoidalar asosida ish yurituvchi adabiyotshunos olim deb hisoblagan emas. Cho‘lpon estetika bobida, san’at nazariyasida yangi sahifa ochgan emas, jahon san’atini va san’atshunosligini batamom yangi yo‘llarga burib yuboradigan tugal ta’limot ham yaratmagan. Shunga qaramay, yangi o‘zbek adabiyoti tarixini Cho‘lponning adabiy-tanqidiy faoliyatisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi”⁵. Mazkur fikr Cho‘lponning adabiy tanqid sohasidagi o‘rni rasmiy nazariyotchilik bilan emas, balki amaliy adabiy jarayondagi faol ishtiroki orqali belgilanishini ko‘rsatadi. Darhaqiqat, Cho‘lpon maxsus estetik ta’limot yaratmagan bo‘lsa-da, uning adabiyot, milliy ruh va ijodkor mas’uliyati haqidagi qarashlari o‘zbek adabiy tanqidchiligi taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etdi.

³ Abdulhamid Cho‘lpon. “Adabiyot nadir?”, “Sadoi Turkiston” gazetasining 1914-yil 4-iyun sonida bosilgan.

⁴ <https://arxiv.uz> Cho‘lponning adabiy-tanqidiy qarashlari

⁵ <https://n.ziyouz.com> “Adabiyot yashasa – millat yashar...”

Adib nafaqat milliy adabiyot masalalari, balki jahon adabiy jarayonlari bilan ham qiziqqan. U turli xalqlar adabiyotini o‘rganish orqali o‘zbek adabiyotini rivojlantirish, uni yangi badiiy-estetik bosqichga olib chiqish mumkin deb hisoblagan. Cho‘lponning adabiyotshunos sifatidagi qiziqish doirasi faqat o‘zbek adabiyoti yoki Sharq bilan chegaralanib qolgan emas. U o‘z xalqini Yevropa adabiyotining eng mumtoz namunalari bilan tanishtirishga harakat qilardi. U Karlo Gossi va uning “Malikai Turandot” asari haqida, buyuk fransuz dramaturgi, klassisizm oqimining asoschisi Molyer to‘g‘risida maqolalar yozdiki, bular Cho‘lponning bilim qamrovi keng munaqqid ekanligidan dalolat beradi.⁶ Cho‘lponning bu yo‘nalishdagi qarashlari o‘zbek adabiyotini jahon adabiy jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish g‘oyasini ilgari suradi. U adabiy taraqqiyot faqat milliy doirada emas, balki xalqaro estetik tajriba bilan boyitilgandagina yuksak bosqichga ko‘tarilishini ta’kidlaydi. Shu bois uning maqolalari o‘zbek adabiyotida qiyosiy adabiyotshunoslik elementlarining shakllanishida ham muhim hisoblanadi. Cho‘lponning adabiy-tanqidiy qarashlarida milliy va jahon adabiyoti o‘rtasida uzviy bog‘liqlikni ta’minlash g‘oyasi asosiy o‘rin tutadi. U adabiyotni tor milliy doira bilan cheklab qo‘ymasdan, uni umuminsoniy estetik qadriyatlar bilan boyitishga harakat qilgan.

Cho‘lpon “Sadoi Turkiston” gazetasining 1914-yil 4-iyunda chop etilgan mashhur “Adabiyot nadir?” maqolasida o‘zining muhim estetik qarashlarini namoyon etadi. Naim Karimovning ta’kidlashicha: “Cho‘lpon shu yillarda yozgan eng muhim asarlarida xalq va Vatan taqdiri bilan bog‘liq g‘oyani ko‘tardi. Lekin shunga qaramay, u adabiyotning eng avvalo estetik hodisa ekanini tan oldi. Uning aytishicha, inson ba’zi vaqtda baxt va shodlikdan kulib, ba’zi vaqtda ko‘z yoshini to‘kadi, kishining har xil kayfiyatda bo‘lishi uning inon-ixtiyori bilan emas, balki “maishati yo‘lida har vaqt uchrab turadurg‘on falokatning anga ba’zi vaqtda zulm ko‘rsatmog‘i va ba’zi vaqtda yaxshilik ko‘rsatub, suyundirmog‘idan” ro‘y beradi. U ana shu holatini to‘ppa-to‘g‘ri bayon etsa, ta’sir qilmaydi, “ammo adabiyot ila aytganda”, albatta, ta’sir ko‘rsatadi. Demak, adabiyot avvalo kishida emotsional tuyg‘u uyg‘otishi, asarda olg‘a surilgan fikr, tasvir etilgan voqea

⁶ <https://arxiv.uz> Cho‘lponning adabiy-tanqidiy qarashlari.

kitobxon qalbida aks-sado berishi, uning his va tuyg'ularini junbushga keltirishi lozim. Demak, uning nazarida, ijodkor tabiat manzaralarini tasvirlaydimi, kishilarning ruhiy holatlarini aks ettiradimi yo muhim hayotiy masalalarni olg'a suradimi, u avvalo tasvir etilayotgan hodisaning kitobxon qalbini to'liqlantirishga erishishi lozim. Shundagina adabiyot asari kitobxon qalbiga yo'l topadi."⁷ Adib nazarida yozuvchi inson qalbiga ta'sir qiluvchi kuch egasi sifatida jamiyat va millat oldidagi burchini chuqur his qilishi lozim. Shu bois u adabiyotda samimiyat, hayot haqiqati va milliy ruhning aks etishiga katta ahamiyat beradi.

Yosh cho'lponshunos olim N.Yo'ldoshev birinchi marta Cho'lpon maqolalarining ro'yxatini tuzib, bibliografiyasini e'lon qildi. Unda ko'rsatilishicha, shoirning 1914-1937-yillar mobaynida chop etilgan adabiy-tanqidiy maqolalarining soni 63 tadir. Shu dalilning o'ziyoq Cho'lponni munaqqid sifatida o'rganish imkonini kengaytiradi.⁸

Cho'lponning adabiy-tanqidiy qarashlari XX asr boshidagi o'zbek milliy uyg'onish davri estetik tafakkurining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Adib o'z maqolalari orqali adabiyotning estetik mohiyati, badiiy ta'sirchanlik, milliy ruh hamda ijodkor mas'uliyati masalalariga alohida e'tibor qaratdi. U badiiy asarning qimmatini inson qalbi va tafakkuriga ta'sir ko'rsata olishida deb bildi. Cho'lponning adabiy-estetik qarashlari jadid adabiyotining ma'rifiy g'oyalari bilan uyg'un holda shakllangan bo'lib, o'zbek adabiy tanqidchiligi taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi. Adibning jahon adabiyotiga bo'lgan munosabati, tarjimonlik va munaqqidlik faoliyati esa milliy adabiyotning estetik imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qildi. Shu jihatdan Cho'lponning adabiy-tanqidiy merosi bugungi adabiyotshunoslik uchun ham muhim ilmiy-estetik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.B.Rahimova. Cho'lponning adabiy-tanqidiy qarashlari. Milliy shoirlarimiz Mehmet Ersoy va Abdulhamid Sulaymon Cho'lponga bag'ishlangan simpozyum. 248-b.

⁷ N.Karimov. Cho'lpon (ma'rifiy roman). Toshkent – 2003. 64-b.

⁸ <https://arxiv.uz> Cho'lponning adabiy-tanqidiy qarashlari.

2. Abdulhamid Cho‘lpon. “Adabiyot nadir? ” “Sadoi Turkiston” gazetasi, 1914-yil 4-iyun.
3. N.Karimov. Cho‘lpon (ma’rifiy roman). Toshkent – 2003. 64-b.
4. <https://arxiv.uz> Cho‘lponning adabiy-tanqidiy qarashlari
5. <https://n.ziyouz.com> Cho‘lpon va jadid adabiyoti haqidagi maqolalar. “Adabiyot yashasa – millat yashar...”